
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Jamoa shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 70- moddasi talablariga ko'ra, jamoa shartnomasi, agar mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferentsiyasida) hozir bo'lganlarning ellik foizidan ko'prog'i uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, ma'qullangan hisoblanadi.

Agar jamoa shartnomasining loyihasi ma'qullanmasa, ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiya uni umumiy yig'ilishning (konferentsiyaning) takliflari va mulohazalariga muvofiq maromiga yetkazadi hamda o'n besh kun ichida umumiy yig'ilishda (konferentsiyada) ko'rib chiqish uchun takroran taqdim etadi.

Taraflar jamoa shartnomasi loyihasini ko'rib chiqish chog'ida hal qila olmagan ixtiloflarni hal etish bo'yicha nizolar jamoaviy mehnat nizolarini hal etish (tartibga solish) uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Jamoa shartnomasi mehnat jamoasining umumiy yig'ilishida (konferentsiyasida) ma'qullanganidan keyin taraflarning vakillari uch kun ichida jamoa shartnomasini imzolaydi.

Shuningdek 71-moddasiga asosan jamoa shartnomasi imzolangan kundan e'tiboran yoki jamoa shartnomasida belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va shartnomada nazarda tutilgan muddat ichida, biroq ko'pi bilan uch yil amal qiladi.

Mazkur muddat tugagach, jamoa shartnomasi taraflar yangi shartnoma tuzguniga yoki amaldagi jamoa shartnomasini o'zgartirguniga, to'ldirguniga qadar amal qiladi.

Taraflar jamoa shartnomasining amal qilish muddati tugaguniga qadar uni uzaytirishi mumkin.

O'ktamjon Ergashev - So'x tumani adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-22 20:05:56